

## WAYS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON USING DIFFERENT METHODS

**Orifjon U. Ergashev**

lecturer

National center for training pedagogues in new methods of Jizzakh region  
Jizzakh, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** lesson, information, technology, process, goal, result

**Abstract:** This article discusses the effectiveness of using a variety of games to increase lesson effectiveness

**Received:** 09.10.22

**Accepted:** 11.10.22

**Published:** 13.10.22

## TURLI USULLARDAN FOYDALANIB DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**Orifjon U. Ergashev**

o'qituvchi

Jizzax viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
Jizzax, O'zbekiston

### МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so'zlar:** dars, axborot, texnologiya, jarayon, maqsad, natija

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dars samaradorligini oshirishda turli o'yinlardan foydalanishning samarasi haqida fikr yuritilgan

## СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ РАЗНЫХ МЕТОДОВ

**Орифжон У. Эргашев**

преподаватель

Национальный центр обучения педагогов новым методам Джизакской области  
Джизак, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** урок, информация, технология, процесс, цель, результат

**Аннотация:** В данной статье рассматривается эффективность использования различных игр в повышении эффективности урока.

## KIRISH

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalar shakllanib, rivojlanib boradi.

## ASOSIY QISM

Zamonaviy geografiya ta’lim berish nazariyasi va amaliyotni dars jarayonida turli o‘qinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishni talab qiladi.

Ta’limiy o‘yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol javoblardan darsning ma’lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda testlar, boshqotirma, bahs munozara kabi o‘yinlar muntazam o‘tkazib turilsa, o‘quvchilarda ma’lum bir ko‘nikmalar to‘planib boradi. Bu esa o‘quvchilarda ma’lum bir tayyorgarlikni, mustaqil o‘qishni, ommaviy axborot vositalarini kuzatib borishni talab etadi. Shunga ko‘ra o‘quvchilar egallashi shart bo‘lgan ko‘nikma va malakalar: qayta (ko‘rsatma) olish, aniqlash (o‘lchay) olish, tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish kabilarni hosil qiladi. Ta’limiy o‘yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma’lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda testlar, boshqatirma, bahs munozara kabi o‘yinlar muntazam o‘tkazib turilsa, o‘quvchilarda ma’lum bir ko‘nikmalar to‘planib boradi. Bu esa o‘quvchilarda ma’lum bir tayyorgarlikni, mustaqil o‘qishni, ommaviy axborot vositalarini kuzatib borishni talab etadi. Shunga ko‘ra o‘quvchilar egallashi shart bo‘lgan ko‘nikma va malakalar: qayta (ko‘rsatma) olish, aniqlash (o‘lchay) olish, tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish kabilarni hosil qiladi.

Men o‘z darslarimda turli usullardan foydalanib darslarim samaradorligini oshirishga harakat qilaman. Darslarim jarayonida foydalanib kelgan bir ikki o‘yin turlaridan misollar keltiraman.

### **“Uchinchisi ortiqcha” o‘yini.**


Mazkur interfaol o‘yinni fanlardan xohlagan mavzuni o‘rganish jarayonida qo‘llash mumkin, bunda bir-biriga mos keladigan 2 ta to‘gri va bitta noto‘g‘ri savol-topshiriq jadvali asosida o‘quvchi e’tiboriga havola etiladi. Buni biz geografik topshiriq misolida keltiramiz:

	<i>Daryolar</i>	<i>Dengizlar</i>	<i>Ko'llar</i>
	Nil	Kaspiy	Baykal
	Titikaka	Oxota	Viktoriya
	Kongo	Sariq	Boltiq bo'yi


Yuqoridagilar ichida qaysi biri ortiqchaligini kim tez topsa, o'sha g'alaba qiladi.

**“Vatanimiz foydali qazilmalarini bilasizmi?” o'yini.**


Uyinni tashkillash uchun 2x3 sm kattalikdagi karton qog'ozlarga foydali qazilmalarning shartli belgilari tayyorlanadi. Masalan,




Toshko'mir




Neft



Tabiiy gaz



oltin



marmar

O'quvchilar o'yinda O'zbekistonning ma'muriy-siyosiy yoki yozuvsız xaritasiga u yoki bu shartli belgilarni mos joylarga joylashtiradilar. Shartli belgililar xaritaga plastilin yordamida yoki magnit yordamida yopishtiriladi. Xaritaga to'gri qo'yilgan belgi uchun bir ball beriladi.

**“Geografik xaritani bilasizmi” o'yini.**

O'yinni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi chegaralari tushirilgan yozuvsız xarita, shartli belgililar jadvali, kartondan qirqib, turli ranglarga bo'yalgan doiralar zarur bo'ladi. Rangli doirachalar respublikamiz hududidagi daryo, ko'l, tog', qazilma konlari va boshqa geografik ob'ektlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Jadval yozuvsız xaritaning yoniga osib qo'yiladi.

Rangli doirachalarining bir qismi magnitli doskaga o'rnatilgan yozuvsız xaritadagi geografik ob'ektlarga qadab qo'yiladi. Chaqirilgan o'quvchi alohida hالتاچага solib qo'yilgan doirachalardan birortasini oladi. Masalan, yashil rangli doirachani oldi, deylik. Jadvalda bu rang tekisliklarni bildiradi.

1-jadval.

T/r	Geografik ob'ektlar	Shartli belgililar
	Dayolar	
	Ko'llar	
	Tog'lar	
	Tekisliklar	
	Neft konlari	
	Tabiiy gaz konlari Oltin konlari	
	Ko'mir konlari	
	Marmar konlari	

O'quvchi yozuvsız xaritadagi respublikamiz hududida joylashgan yashil doirachalar qadab qo'yilgan tekislik nomini aytadi. Nom to'gri aytilsa, doiracha yozuvsız xaritadan olib o'qituvchiga

topshiriladi. Topish uchun bir daqiqa vaqt beriladi. Har bir to‘g‘ri topilgan ob’ekt uchun 1 ball beriladi. To‘g‘ri topilmagan ob’ektdagi doiracha olinmaydi. Keyingi chaqirilgan o‘quvchi ularni topishi mumkin.

Doska yoniga chaqirilgan o‘quvchi xaltachadan 5 ta doirachani olib uni aniqlaydi. Navbat bilan boshqa o‘quvchilar ham doska yoniga chiqib doirachalar qadalgan orollarni va boshqa ob’ektlar nomlarini aytishadi. To‘plangan ballar bo‘yicha o‘quvchilar baholanadi. Agar sinfda o‘quvchilar soni juda ko‘p bo‘lmasa, doiralarning soni 5 tadan 10 tagacha ko‘paytirilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

Xulosa qilib aytganda, ta’lim mazmunining o‘zgarishi, ta’limda pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, zamонави о‘qitish metodlari talablarining o‘zgarishlari dolzarb masala bo‘lib har bir o‘qituvchiga katta mas’uliyat yuklaydi. Davr talabi darajasida dars o‘tish bevosita pedagogik texnologiya, geografiya o‘qitishning nazariy va metodik asoslari bilan bog‘liq deb o‘ylayman.